

FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARUV ORGANLARI VA ULARNING FAOLIYATIGA DOIR

Олимжанова Зухраҳон Рустамжон кизи

Андижон давлат университети 1-босқич докторанти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8133343>

Annotatsiya: Dunyoda mamlakatlar ko'p, tuzumlar va boshqaruv usullari ham shunga yarasha turlicha yoki bir biriga yaqin bo'lishi mumkin. Buning sababi esa oddiy. Hozirgi paytda dunyoning ko'plab mamlakatlarida demokratiya hukm surmoqda va bunga esa xalqaro miqyosda e'tirof etilgan huquqlar va qonunlarga mos keluvchi konstitutsiyalar orqali erishilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublika konstitutsiyasi ham dunyoning ko'plam demokratiya taraqqiy etgan mamlakatlari konstitutsiyasini o'rganish va uni yurtimiz sharoitiga moslash orqali vujudga kelgan. Lekin shu bilan birga shuni alohida taakidlash kerakki hech bir davlatning konstitutsiyasida uchramaydigan ayrim holatlar bizning konstitutsiyamizda alohida qayt etib o'tilgan.

Shulardan biri esa bu albatta mahalla instituti, yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari hisoblanadi. Quyida ularning faoliyati va huquqiy asoslari, jamiyatimizdagi ajralmas o'rni haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, demokratiya, respublika, institut, davlat organi mahalla, o'zini o'zini boshqarish organlari, mahalla raisi.

«Mamlakatda "xalq an'analari asoslangan, tarixiy shakllangan Jamoaviy munosabatlar – mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishining noyob mexanizmi"[1] yaratildi.»

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari - fuqarolarning xalq hokimiyatini bevosita amalga oshirishi, davlat va jamiyat ishlarida to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishi vositalaridan biri. Asosiy vazifasi fuqarolarni mahalliy ahamiyatga bog'liq masalalarni hal qilishda mustaqil faoliyat olib borishini ta'minlashdir.[2]

Respublika Konstitutsiyasi va "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonunida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy maqomi keltirib o'tilgan. Bu qonunga ko'ra, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin, masalan: shaharcha, qishloq, ovul fuqarolarining, shuningdek, shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolarining yig'ini; fuqarolar yig'inining kengashi; fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar; fuqarolar yig'inining taftish komissiyasi; tuman markazidan olisda joylashgan va qiyin bo'lgan shaharchalar, qishloqlar va ovullarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tuziladigan ma'muriy komissiya va boshqalar.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, namunadagi muhrga ega bo'ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinishi kerak bo'ladi. E'tibor beriladigan bo'lsa masalaning eng qiziq tomoni ham shunda. Chunki agar bu organ mahalliy davlat hokimiyatini amalga oshirsa u o'zini o'zi boshqaruvchi subyekt bo'lmasdi, shu sababli ham bu organga yuridik shaxs maqomi berilgan va bu organ huddi jamoat birlashmasi kabi faoliyat yuritadi. Faqatgina ayrim masalalarda

jamaot birlashmasidan farqli jihatlarini namoyon bo'ladi va huquqlari kengaytirilganligi bilan faralanadi.

O'zbekistonda 10 mingdan ortiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat yuritmoqda. Fuqarolar yig'ini organlarini va ularning mansabdor shaxslarini saylash fuqarolarning qonunda belgilangan saylov huquqlari kafolatlarini ta'minlagan holda, umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin yoki ochiq ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi[3] qonun tegishli sohadagi harakatlarni tartibga solish uchun qabul qilingan.

Fuqarolar yig'ini — fuqarolar o'zini-o'zi boshqarishining yuqori organi bo'lib, aholi manfaatlarini ifodalash, himoya qilish va vakolatga ega bo'lgan hudud axolisi nomidan tegishli hududda amal qiluvchi qarorlar qabul qilish, ularning nomidan davlat organlari bilan aloqa o'rnatish kabi huquqlarga ega. Fuqarolar yig'inida 18 yoshga to'lgan hamda shaharcha, qishloq, ovul va mahalla hududida doimiy yashayotgan shaxslar qatnashadi. "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi[4] yangi tahrirdagi qonunda shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'inining vakolatlari ko'rsatilgan. Fuqarolar yig'inining qarorlarini bajarish va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining fuqarolar yig'inlari oraliq davridagi joriy faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), uning maslahatchilari, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning raislari va yig'inning mas'ul kotibidan iborat tarkibda fuqarolar yig'inining kengashi tuziladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini tashkil etishni uning kengashi hamda fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) amalga oshiradi. Fuqarolar yig'ini kengashi o'z devoniga ega bo'lishi mumkin, uning xodimlari soni yig'in tomonidan belgilanadi. Fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), mas'ul kotibi va kengash devoni xodimlari fuqarolar yig'inining mablag'lari hisobiga ham, qonun hujjatlarida belgilangan tartibga solingan holatda mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga ham ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Taftish komissiyasi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun tuziladi. Ma'muriy komissiya esa ma'muriy huquqbuzarlik va qonunbuzarliklarga oid o'z vakolatlari doirasidagi ishlarni ko'rib chiqish uchun tuziladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida respublika oqsoqollar Kengashi, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha viloyat, tuman, shahar muvofiqlashtirish kengashlari tuzilishi mumkin va bu holat odatda mazkur sohani boshqarish va tartibga solishga yordam beruvchi ijobiy vosita sifatida qaraladi. . Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi o'z mablag'laridan, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan belgilangan tartibda ajratiladigan byudjet mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayir-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa mablag'lar hisobida ta'minlanishi mumkin bo'ladi.[5]

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy bazasini takomillashtirish davr talabidir. Mamlakatimiz mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish asosida mustaqil taraqqiyot yo'lidan bordi.

Bu borada "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyiliga amal qilingani fuqarolik jamiyati institutlarining samarali faoliyat yuritishi imkonini berdi. Ayniqsa, o'tgan

o'n yillikda fuqarolik jamiyatining turli institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari shakllanib, har tomonlama rivojlandi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining o'tgan yil 12-noyabrda qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"dagi ma'ruzasi. Fuqarolik jamiyatini barpo etish bo'yicha yangi vazifalarni qo'ydi. Jamiyat Xususan, davlatimiz rahbarining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi tashabbusi fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish, ularning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan ijtimoiy hamkorligini mustahkamlash, faol ishtirokini kengaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratishga xizmat qilmoqda.[6]

Ta'kidlash joizki, o'tgan davrda mamlakatimizda xalqimizning o'ziga xos an'ana va qadriyatlari, o'zini o'zi boshqarishning o'ziga xos shakli bo'lgan jamiyat oldidagi o'z majburiyatlarini bajarishni kafolatlovchi mahalla rivojiga katta hissa qo'shgan. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan. Bugun mamlakatimizda o'n mingga yaqin fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish (mahalla) rivojlanib borayotgani va uning mustahkam huquqiy bazasini kuzatar ekanmiz, mamlakatimizda keng ko'lamli demokratik islohotlarning asosiy tamoyili izchil hayotga tatbiq etilayotganining guvohi bo'lamiz.

Xususan, mustaqillikning dastlabki yillarida mahallaga ikki vazifani bajarish qonuniy vakolat berilgan bo'lsa, bugungi kunda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan 30 dan ortiq ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar unga o'tgan. Masalan, mikrorayon ijtimoiy muammolarni hal etish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, oila institutini mustahkamlash va uning farovonligini ta'minlash muammolarini hal etishda amaliy yordam ko'rsatish orqali o'z hududida tinchlik va osoyishtalikni ta'minlamoqda. Yarashuv komissiyasi, Mahalla xizmati kabi samarali mexanizmlardan foydalanish ijobiy natijalar bermoqda.

Qaysidir ma'noda, mahalla katta oilaga o'xshaydi va shuning uchun ko'pincha har bir oilada nizolar kelib chiqishi mumkin, raqobat, o'zaro tushunmovchilik, qarshilik va hokazolar paydo bo'lishi mumkin. Ammo, agar bu ikkilamchi, tasodifiy onlarning barchasi bartaraf etilsa, shunla mahallalar haqiqiy demokratiya, adolat, insoniy minnatdorchilik va o'zaro yordam bilan ajralib turadi. Bularning barchasi yoshlar ongi va qalbida chuqur iz qoldiradi.

Uning mahalladagi tarbiyasi nomiga, betartib va xo'ja ko'rsinga olib borilmaydi. Buning asosiy afzalligi – jamoatchilik fikrining mustahkamligiga, avlodlar davomiyligiga, oqsoqollarning tirik namunasiga, muayyan odamga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga, kuchsizlarga (bevalar, yetim bolalar, nogironlar, yolg'iz keksa fuqarolar) g'amxo'rlik qilish va qo'llab-quvvatlashga asoslangan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, mahalla maqomi sezilarli darajada oshdi. Unga muhim qo'shimcha vazifalar berilgan.

Tarbiyaviy ishlarga, ayniqsa, yosh avlodga ko'proq e'tibor qaratildi. Mahalla qo'mitalari va faollarining sa'y-harakatlari bilan aniq yo'naltirilgan ta'limiy yo'naltirilgan turli xil tadbirlar o'tkazildi. «Mahalla tizimi jamiyatimizning eng muhim va tayanch bo'g'ini hisoblanadi. Oxirgi uch yilda uni rivojlantirish borasida qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Xususan, mahalla institutiga oid 38 ta qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi, 50 dan ortig'i takomillashtirildi. Jamiyat hayotida jonbozlik ko'rsatgan soha xodimlari davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Fuqarolar yig'inlari raislari va mas'ul kotiblarining oylik ish haqi o'tgan yilning o'zida 1,5 barobarga oshirildi.

So'nggi uch yillikda 624 ta mahalla fuqarolar yig'ini idorasi yangidan qurildi, 2 ming 265 tasi esa qayta rekonstruktsiya qilindi. 102 ta tuman va shahar markazida "Mahalla markazi" binolari qad rostladi. Har bir fuqarolar yig'inida "Keksalar maslahati" guruhlar, 4 mingdan ziyod mahalla binolarida kutubxonalar va shunga o'xshash axoli uchun anchagin foydali bo'lgan muassasalar tashkil qilindi. Mahalla faollarining mas'ul tashkilotlar, davlat organlarining ko'magi va yurtimizda olib borilayotgan odilona, xalqchil siyosiy tufayli oxirgi uch yilda 87 mingga yaqin kam ta'minlangan oila ehtiyojmandlik darajasidan chiqarildi». "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyat sari" tamoyilini bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirishga asoslangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish, rivojlantirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish – mahallaning O'zbekiston tajribasi katta qiziqish uyg'otadi va undan demokratiya yo'lidan borayotgan mamlakatlarda samarali foydalanish mumkin. [7]

Qolaversa shunday vakolat keng va axoli o'rtasida tasir doirasi kuchli bo'lgan organga uning faoliyatini amalga oshiradigan yoki bo'lmasam boshqaradigan shaxslarni ham saylash bu muhim ahamiyatga ega ish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda milliy an'ana va qadryatlar uyg'unligida qurilayotgan Yangi O'zbekistonni mahalla yoki bo'lmasam fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bo'lmish mahalla fuqarolar yig'inisiz tasavvur etish mushkul hisoblanadi.

Bu institutning yanada taraqqiy etishi yurtimiz rivoji va taraqqiyoti yo'lida ulkan foyda keltiruvchi va o'zining ajralmas, munosib hissasini qo'shuvchi, milliy qadryatlarga asoslangan, ammo shu bilan birga zamon bilan hamnafaslikda rivojlanib, u bilan birga o'sib mahalliy sharoitga moslashuvchi kuchli fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi desa xato bo'lmaydi.

Shunday ekan yuqoridagilarni inobatga olgan holda mazkur organning hayotimizdagi o'rni va ro'lini chuqur anglashimiz va uning taraqqiy topishi uchun birgalikda harakat qilishimiz kerak. Shundagina biz ko'zlagan oliy maqsadimizga erishishimiz va yurtimiz mustaqilligini yanada mustahkamlagan holda jahon hamjamiyatidagi o'rnini yanada yuksakroq pog'onalarga ko'arishimiz mumkin.

References:

1. Турсунова Р.Ю. Духовный аспект в модернизации институтов гражданского общества (на примере политических партий). -Ташкент: УМЭД, 2012. 96 с.
2. Sh.M.Mirziyoyev-Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz
3. <https://lex.uz/docs/>
4. <https://uz.wikipedia.org/>
5. www.arxiv.uz
6. www.president.uz/uz/3351
7. <https://kun.uz/uz/news/2020/04/20/>